

JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Jizzax viloyati kichik tadbirkorlik




2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik

2017-2022 yillarda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023 yilning 1 yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **22,5** mingtani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **3,0** mingtaga ko'paygan yoki **15,5 %** ga oshgan.- Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **1,5** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2022- yilning yanvar - dekabrda **4,5** mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,0 %** ga kam demakdir.

2023- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 2023 - yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan soni jami **22474** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **4505** tani tashkil etdi


2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Jizzax shahrida **6496** tani yoki jamiga nisbatan **28,9 %** ni tashkil etdi.

1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*



2022- yilda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan **14,9** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2021 yilga nisbatan **1,1** birlikka oshgan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000 aholiga** nisbati eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida **25,1** birlik, Arnasoy tumanida **15,2** birlik, Sh.Rashidov tumanida **14,3** birlik, Mirzacho'l tumanida **13,8** birlikka yetdi.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*)*



* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*

Eng yuqori ko'rsatkich

Jizzax shahrida 25,1-birlik
Arnasoy tumani– 15,2 birlik.

O'rtacha ko'rsatkich

Sh.Rashidov tumani 14,3 birlik.
Mirzacho'l– 13,8 birlik.

Eng past ko'rsatkich

Forish tumani-1,6 birlik
Yangiobod tumani – 1,7 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000** aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida **25,1** birlik, Arnasoy tumanida **15,2** birlik, Sh.Rashidov tumanida **14,3** birlik, Mirzacho'l tumanida **13,8** birlik, Do'stlik tumanida **13,4** birlik, Paxtakor tumanida **12,2** birlik, Zarbdor tumanida **12,1** birlik, Zafarobod tumanida **11,7** birlik kuzatildi.

2022- yilda har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, *birlikda*

Jizzax shahri
25,1

Arnasoy tumani
15,2

Sh.Rashidov tumani
14,3

Mirzacho'l tumani
13,8

Do'stlik tumani
13,4

Paxtakor tumani
12,2

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*

2022- yilda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % *da*


2021- y.		2022- y.
1 113	Jizzax sh.	1 056
168	Arnasoy	161
341	Baxmal	348
450	G'allaorol	469
585	Sh.Rashidov	506
197	Do'stlik	260
376	Zomin	431
220	Zarbdor	263
104	Zafarobod	152
165	Mirzacho'l	193
216	Paxtakor	215
338	Forish	350
100	Yangiobod	101

Yangiobod	2,2
Zafarobod	3,4
Arnasoy	3,6
Mirzacho'l	4,3
Paxtakor	4,8
Do'stlik	5,8
Zarbdor	5,8
Baxmal	7,7
Forish	7,8
Zomin	9,6
G'allaorol	10,4
Sharof Rashidov	11,2
Jizzax sh.	23,4


2022- yilda hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Jizzax shahri – **23,4 %**, Sh.Rashidov – **11,2 %**, G'allaorol – **10,4 %**, Zomin – **9,6 %**, Baxmal – **7,7 %** Forish – **7,8 %**, hissalarga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2021-2022- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, *birlikda*




2022 yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **1433** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **1151** ta, sanoatda **866** ta hamda qurilishda **210** ta yangidan tashkil etilgan.


Tumanlar va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahrida **1056** ta, Sh.Rashidov tumanida **506** ta G'allaorol tumanida **469** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018-2022 yillarda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, *ming birlik*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2018-2022 yillar davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, *ming birlik*



So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2018-2022 yillar davomida jami **18907** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida -**5822** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida -**4490** ta, sanoat sohasida - **3817** ta, xizmatlar sohasida -**3315** ta, va qurilish sohasida - **1463** ta tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan sohalar

Kichik korxonalar va mikrofirmalar so‘ngi 3 yilda eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan soha va yo‘nalishlar


Tarmoq nomi	Korxonalar soni, birlik	Tarmoq-dan ulushi, %da
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi		
Aralash qishloq xo‘jaligi	512	10,3
Parrandachilik	319	16,6
Yirik shoxli qoramollarning sut beradigan zotlarini ko‘paytirish	337	15,7
Sabzavotlar etishtirish	388	13,6
Qorako‘l zotlilardan tashqari qo‘ylarni ko‘paytirish	362	14,6
Sanoat		
Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoye ishlab chiqarish	477	5,1
Boshqa to‘qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish	148	16,6
Boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish	239	10,3
Boshqa mebellar ishlab chiqarish	100	24,5
Metall eshik va derazalar ishlab chiqarish	136	18,0
Qurilish		
Turar joy binolarini qurish	210	3,4
Yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish	191	3,8
Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	95	7,6
Qurilish loyihalarini ishlab chiqish	29	24,9
Boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish-montaj ishlari	28	25,8
Savdo		
Ixtisoslashmagan do‘konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi	618	5,7
Ixtisoslashmagan ulgurji savdo	616	5,1
Ixtisoslashmagan do‘konlarda asosan oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari chakana savdosi	290	10,8
Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi	738	4,2
Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa yangi tovarlar chakana savdosi	275	11,4
Xizmatlar sohasi		
Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari	456	5,9
Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari etkazish bo‘yicha xizmatlar	177	15,2
Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar	245	11,0
Avtomobil transportida yuk tashish	103	26,2
Ta’lim sohasidagi yordamchi faoliyat	121	22,3

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida tahlililar shuni ko'rsatmoqdaki, so'ngi besh yilda barcha sohada yangi turdagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, So'ngi 5 yilda eng ko'p savdo sohasining Ixtisoslashgan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi yo'nalishida **5822 ta** yangi kichik korxonalar va mikrofirma tashkil etilgan bo'lib, bu esa savdo sohasida oxirgi 5 yilda tashkil etilgan korxonalarning **30,8 %**ini tashkil etmoqda. Bundan tashqari so'ngi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imkoniyat va preferensiyalar natijasida, xizmatlar sohasining ovqatlanishni tashkil etish, avtomobil transporti xizmatlari va ta'lim yo'nalishlarida ham ko'plab kichik korxonalar va mikrofirmalar ochilayotganligini ko'rishimiz mumkin.


Shuningdek, sanoat sohasida so'ngi yillarda asosan qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, trikatay mahsulotlarni ishlab chiqarish, mebel ishlab chiqarish va deraza hamda eshik romlarini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan bo'lsa, qurilish sohasida esa ko'proq yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar turar joylarni qurilishi, qurilish loyihalash ishlari hamda boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish montaj yo'nalishlarida ko'proq tashkil etilmoqda.

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIMdagi ulushi dinamikasi, % da



2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlar, % da




2022 yilda YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **79,4 %**ni tashkil qilib, 2021 yilga nisbatan **2,8** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.


2022- yilda kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **98,9 %**ni, yo'lovchi aylanmasida **97,3 %**ni, yo'lovchi tashishda **94,2 %**ni, qurilishda **94,1 %**ni savdoda **70,1 %**ni, tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mln. so'm



2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5446,8** milliaon so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi G'allaorol (**2069,3** mln. so'm), Jizzax shahri (**1240,0** mln. so'm), Forish (**490,3** mln. so'm), Paxtakor (**381,1** mln. so'm), Sharof Rashidov (**320,1** mln. so'm) va Zomin (**290,3** mln. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Yangiobod tumanida (**42,8** mln. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yilda hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2022- yilda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **48,9 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Baxmal, Mirzacho'l, Yangiobod tumanlari (**100,0 %**), G'allaorol tumani (**97,4%**), Forish tumani (**91,3 %**), Arnasoy tumani (**71,3 %**), Sh.Rashidov tumani (**59,8 %**), Paxtakor tumani (**57,7 %**), va Zomin (**44,1 %**) tumanlari tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2022- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi




2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **3228,0** million so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **94,1** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **106,5** % ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Jizzax shahri (**1220,8** mln. so'm), Sh.Rashidov (**590,9** mln. so'm), Zomin (**301,1** mln. so'm), Paxtakor (**188,4** mlrd. so'm), Forish (**147,9** mlrd. so'm) hamda Zarbdor (**144,9** mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, mln. so'mda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mln. so'mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **7906,6** million so'mni yoki jami investitsiya hajmining **73,5 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **115,4 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Forish (**3512,2** mln. so'm), Jizzax shahri (**964,7** mln. so'm), G'allaorol (**874,1** mln. so'm), Sh.Rashidov (**763,9** mln. so'm), Zomin (**475,3** mln. so'm), hamda Baxmal (**401,1** mln. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2022 yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



■ hajmi, mlrd. so'm ■ o'sish foizi, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati


2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mln. so'mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **22 829,2** mln. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **98,9** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **103,3** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi G'allaorol tumanida (**3 318,3** mln. so'm), Baxmal tumanida (**3 079,2** mln. so'm), Sharof Rashidov tumanida (**2 320,3** mln. so'm), Zomin tumanida (**2 124,1** mln. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




2022 yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **7958,4** mln. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **70,1 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **110,5 %** ni tashkil qildi.

2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, mln. so'm

Jizzax sh.	1909,9
Arnasoy	171,9
Baxmal	1392,2
G'allaorol	731,4
Sharof Rashidov	1263,6
Do'stlik	258,4
Zomin	975,9
Zarbdor	229,4
Zafarobod	170,5
Mirzacho'l	224,3
Paxtakor	270,0
Forish	287,1
Yangiobod	73,8

2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Jizzax shahri (**1909,9** mln. so'm), Baxmal (**1392,2** mlrd. so'm), Sh.Rashidov (**1263,6** mln. so'm), Zomin (**975,9** mln. so'm) va G'allaorol (**731,4** mln. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2022- yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishi hajmi, mln. so'mda




2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4363,5 mln. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 59,7 % ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 110,9 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Jizzax shahri (1183,8 mln. so'm), Sh.Rashidov (892,9 mln. so'm), G'allaorol (523,8 mln. so'm), Zomin (476,8 mln. so'm) va Baxmal (366,1 mln. so'm), tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


Hajmi, mln. AQSH dol.



Ulushi, %da




2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2022- yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **116,4** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **46,3 %** ini tashkil etdi.


2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi



2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Mirzacho'l, Zafarobod, Paxtakor, Yangiobod, Baxmal tumanlarida – **100,0 %**, Forish tumanida – **68,7 %**, Zomin tumanida – **60,9 %**, G'allaorol tumanida – **41,6 %**, eng past ko'rsatkich Do'stlik tumanida – **6,2 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, %da




2022- yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **335,7** million AQSH dollarini yoki jami importning **84,4** % ini tashkil etdi.

2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Baxmal tumanida – **100,0** %, Mirzacho'l tumanida – **100,0** %, Yangiobod tumanida – **100,0** %, G'allaorol tumanida – **99,8** %, Sharof Rashidov tumanida – **99,4** %, Forish tumanida – **99,4** % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk
tashishda

2022- yilda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,4 %** ni tashkil etdi. 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **106,5 %** ni tashkil qildi.




Yuk
aylanmasida

2022- yilda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,6 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **106,1 %** ni tashkil qildi.



Yo'lovchi
tashishda

2022- yilda, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,2 %** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **101,2 %** ni tashkil qildi.




Yo'lovchi
aylanmasida

2022- yilda, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,3 %** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **103,1 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonaga va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil VI chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2022- yil VI chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonaga va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **669** ta kichik korxonaga va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **261 (38,9 %)**tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **381 (57,0 %)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **27 (4,1%)**ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **35,9 % (241 ta)**, xizmatlar sohasida – **23,7 % (158 ta)**, sanoatda – **13,9 % (93 ta)**, qurilishda – **11,7 % (78 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **14,8 % (99 ta)**ni tashkil etdi.

2022- yil VI chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonaga va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2022- yil VI chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahri (207 ta), Sharof Rashidov tumanida (97 ta), Forish tumanida (57 ta), Zomin tumanida (48 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning VI choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning VI choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **33,5** %ni, xizmatlar sohasida – **26,5** % ni, sanoatda – **13,5** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **38,3** % ni, xizmatlar sohasida – **21,88** % ni, qurilishda – **13,6** % ni, sanoatda – **14,2** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – **11,1** % ni, sanoatda – **14,8** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **26,0** % ni tashkil etdi.

2022- yilning VI choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2022- yilning VI choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **35,5 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **15,2 %** ni, xizmatlar sohasida – **24,3 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda – **36,2 %** ni, xizmatlar sohasida – **24,9 %** ni, sanoatda – **14,4 %** ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **31,3 %** ni, xizmatlar sohasida – **25,0 %** ni, sanoatda – **18,8 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning VI choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	25,9	16,6	31,7
Band bo'lganlar soni	15,0	22,8	18,3
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	18,3	20,7	19,2
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	16,5	21,7	18,3
Raqobat muhiti	24,2	18,1	12,5

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	24,7	16,9	26,1
Band bo'lganlar soni	16,4	22,4	17,4
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	18,8	20,6	26,1
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	17,2	21,9	19,6
Raqobat muhiti	22,8	18,3	10,9


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning VI choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2022- yilning VI choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli